

QASHQADARYO VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHALARI

*Abdiholiqova G.A.
Qarshi davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati sanoatining rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari, sanoat salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar, xususan, tabiiy resurslar, transport infratuzilmasi, hududiy iqlim sharoitlari va demografik omillar bayon qilingan. Shuningdek, sanoat tarmoqlari, jumladan, kimyo, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarning hududiy taqsimlanishi va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada viloyatdagi sanoatning geografik taqsimoti va rivojlanish sur'atlari o'rganilib, bu jarayonning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka bo'lgan ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *sanoat tarmoqlari, tabiiy resurslar, infratuzilma, hududiy farq, omillar, iqtisodiy integratsiya.*

Sanoat rivojlanishi, zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va hayotiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning iqtisodiy geografik jihatlarini o'rganishning zaruriyati bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, sanoat rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlarini o'rganish, tabiiy resurslarning hududiy taqsimoti, xomashyo manbalari va ishlab chiqarish quvvatlarining joylashishini aniqlashda yordam beradi. Har bir sanoat tarmog'i o'ziga xos tabiiy resurslarga muhtoj bo'lganligi sababli, sanoat korxonalarining joylashuvi va ular orasidagi o'zaro aloqalar iqtisodiy geografiyani chuqur o'rganish orqali tahlil qilinishi kerak. Misol uchun, kimyo sanoati tabiiy gaz, kaliy tuzlari yoki boshqa xomashyolarga asoslangan bo'lsa, bu resurslar qayerda joylashganini bilish sanoatning mintaqaviy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Sanoat rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Iqtisodiy geografiyani o'rganish sanoatning jahon bozorida qanday o'rin egallayotganini, eksport salohiyatini, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va boshqa ko'plab omillarni aniqlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Iqtisodiy geografiya sanoat tarmoqlarining rivojlanishida joylashuvning muhimligini ta'kidlaydi, chunki sanoatning ekologik va ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur. Sanoat rivojlanishining iqtisodiy geografiyasini o'rganish sanoat klasterlarining

shakllanishini va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tahlil qilishga yordam beradi. Sanoat klasterlari – bu o‘zaro bog‘langan sanoat korxonalarini va xizmatlar tarmog‘ining birlashgan to‘plami bo‘lib, ular hududiy rivojlanishni kuchaytiradi. Misol uchun, yuqori texnologiyali sanoat yoki neft-kimyo sanoati klasterlarini shakllantirish hududiy iqtisodiyotning samarali o‘shishiga yordam beradi. Sanoatni mintaqaviy va global darajada integratsiya qilish iqtisodiy o‘shishni tezlashtirishi mumkin.

Sanoat rivojlanishini iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganishning zaruriyati yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda sanoat tarmoqlarining mintaqaviy va global darajada rivojlanishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bu o‘rganish, sanoatni barqaror rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirish, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va sanoatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 20 yanvar 1943 yilda tashkil etilgan, 1960-1964 yillar oralig‘ida u Surxondaryo viloyati bilan qo‘shilgan va 7.02.1964 yilda qayta tiklangan. Viloyat maydoni 28,6 ming kv. km bo‘lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Bu borada Qashqadaryo Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Viloyat aholisi, 2023 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, 3560,6 ming kishi (respublika aholisiga nisbatan 9,6 foiz) bo‘lib, o‘zining demografik sig‘imi yoki salohiyati bo‘yicha O‘zbekiston mintaqalari ichida Samarqand, Farg‘ona viloyatlaridan keyingi 3-pog‘onani egallaydi. Qashqadaryo viloyatida aholi soni tez o‘shib, u keyingi yillarda poytaxt Toshkent va Andijon viloyatlaridan o‘tib ketgan.


O‘zbekiston Respublikasi mehnat taqsimotida Qashqadaryo yetakchi mavqelardan birida turadi. 2023 yil yakunlariga qaraganda, bu yerga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizi, sanoat ishlab chiqarishining 4,3, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 9,4 foizi to‘g‘ri kelgan. Yalpi ichki mahsulot ulushiga ko‘ra viloyat – 6-o‘rinda, sanoatda - 8, qishloq xo‘jaligida – 5 o‘rinda turadi. Agar bu nisbat ko‘rsatkichlari uning demografik salohiyatiga taqqoslab qaralsa, mintaqaning milliy iqtisodiyot shakllanishi va rivojlanishida pasayishlarni kuzatish mumkin.

Qashqadaryo viloyati ma‘muriy-hududiy tuzilishida 14 qishloq tumanlari mavjud. Tashkil topgan muddatiga ko‘ra eng “qadimgi” qishloq tumanlari Yakkabog‘, Koson, G‘uzor va Shahrisabz hisoblanadi (ular 1926 yilda tashkil etilgan). Bir qator tumanlari esa ko‘proq Qarshi dashtini o‘zlashtirish munosabati bilan (Muborak, Nishon, Kasbi, Mirishkor) vujudga kelgan. 2022 yilda Chiroqchi tumani tarkibidan Ko‘kdala tumani ajralib chiqdi. Maydonining ko‘lami bo‘yicha eng katta tuman Dehqonobod; Mirishkor va Muborak tumanlari ham nisbatan

katta hisoblanadi. Yuqoridagi uch qishloq tumanlarining maydoni 10,3 ming kv. km yoki mintaqa hududining 36,0 foizi demakdir. Eng kichik tuman - Kasbida 0,65 ming kv. km yer bor. Shunday qilib, viloyat ma'muriy birliklarining geografik koeffitsiyenti 6,1 ga teng; o'rtacha har bir qishloq tumaniga taxminan 2 ming kv. kmdan ziyodroq yer maydoni to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, Qashqadaryoning faqat Dehqonobod tumani Andijon yoki Sirdaryo viloyati maydoniga deyarli teng.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar xususiyatini olishiga tegishli imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatiga molik bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi, u respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos "lokomotiv" vazifasini bajaradi. Bu yerda neft-gaz, tog'-kon kimyosi, paxta, g'alla, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish yaxshi rivojlangan. Xususan, neft va gaz, paxta va g'alla yetishtirishda u mamlakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va b.) hamda chorvachilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarning birini egallaydi.

Qashqadaryo viloyati respublika sanoatidagi ulushi bo'yicha 2018 yilda 5-o'rinda bo'lsa, 2022 yilga kelib Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlaridan keyin 8-o'rinni egalladi (1-rasm). Viloyatning respublika sanoatidagi ulushi 2023 yilda 4,3 foizni tashkil qildi. Xuddi shunday "yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi" bo'yicha esa Qashqadaryo viloyati respublikada 8-o'rinni egalladi.



1-rasm. O'zbekiston sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining hududiy taqsimlanishi (2021 y. mlrd so'mda)

Bugungi kunda respublikamiz sanoatini rivojlantirishda mahalliy xom-ashyo

va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotining o'sish sur'ati respublika ko'rsatkichiga nisbatan ancha yuqori bo'lgan variatsiyalanish xarakteriga ega, jumladan, viloyatda sanoat mahsulotining eng yuqori o'sish sur'ati 2008 yilga (118,9 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, eng quyi o'sish sur'ati 2010 yilga (96,8 foiz) to'g'ri keladi. Qator yillar davomida viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining mutlaq o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibini tahlil qilish natijalari uning bir yoqlama xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Agar sanoatning tarmoq tarkibida tog'-kon sanoati, oziq-ovqat, to'qimachilik va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ustuvor o'ringa ega bo'lib, ularning yalpi sanoat mahsulotidagi birgalikdagi ulushi 2018 yilda 80 foizdan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, uning hududiy tarkibida uchta hudud – Muborak va G'uzor tumanlari hamda Qarshi shahri salmoqli ulushga ega (ularning birgalikdagi ulushi 62,3 foizga teng). Agar Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishni tumanlar kesimida tahlil qilinsa, uning turli sur'atlarda rivojlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Xususan, viloyatning eng yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tumanlari – Muborak va G'uzor tumanlari hamda Qarshi shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 2010-2023 yillarda viloyat ko'rsatkichiga nisbatan past sur'atlarda o'sgan. Agar 2010-yilga nisbatan 2023-yilda viloyat sanoat mahsuloti joriy narxlarda 3,1 martaga o'sgan bo'lsa, Muborakda 1,8 marta, Qarshi shahrida 2,3 marta va G'uzor tumanida 2,85 marta o'sgan. Boshqa barcha tumanlarda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi viloyat ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Nishon (29,5 marta), Dehqonobod (15,5 marta), Qarshi (13,7 marta) va Kitob (12,5 marta) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi yuqori sur'atlarda o'sgan.

1-jadval

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi
(jamiga nisbatan foiz hisobida)


Hududlar	2010- yil	2015- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Qashqadaryo viloyati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qarshi shahri	14,4	18,0	20,2	17,2	15,2	13,4
Shahrisabz shahri	-	-	2,2	1,7	2,0	1,6
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	22,4	22,7	18,5	18,1	15,4	13,5
Dehqonobod	0,6	1,9	4,0	3,7	6,0	3,3

Qamashi	1,1	1,6	3,8	3,0	2,9	2,8
Qarshi	1,1	1,7	4,2	5,6	7,7	7,2
Koson	2,1	3,8	5,2	4,2	4,0	4,3
Kitob	0,5	1,4	2,7	1,8	3,0	4,7
Mirishkor	0,9	1,3	2,1	1,7	2,5	2,3
Muborak	51,2	32,3	4,3	3,3	2,6	2,9
Nishon	1,0	5,2	20,6	24,3	23,0	29,7
Kasbi	1,0	1,3	2,7	6,2	7,3	5,8
Ko'kdala	-	-	-	-	0,5	0,5
Chiroqchi	0,6	1,6	2,5	2,3	2,3	3,0
Shahrisabz	2,3	5,6	2,9	2,7	2,0	1,8
Yakkabog'	0,8	1,6	4,3	4,2	3,5	3,3

Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2023 yil.

2023 yilda Qashqadaryo viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (jami ishlab chiqarish hajmining 29,7 %), G'uzor (13,5 %), Qarshi shahri (13,4 %), Qarshi tumani (7,2 %), Kasbi (5,8 %), Kitob (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi (1-jadval). Eng past ko'rsatkich Ko'kdala (0,5 %), Shahrisabz shahri va tumani (1,6 %, 1,8 %), Mirishkor (2,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyatida 2023-yil davomida 28 259,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 foiz (o'sish ko'rsatkichi bo'yicha Respublika hududlari orasida 3-o'rin)ga oshgan. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 4,3 foizni va hududlar orasida 8-o'rinni egallangan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi – 5,8 %, ishlab chiqariladigan sanoat 78,3 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati – 15,4 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati - 0,5 foizni tashkil qilgan. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmida viloyatning 3 ta hududi – Nishon (29,7%), G'uzor (13,5%) tumanlari va Qarshi shahri (13,4%) asosiy qismni tashkil qiladi (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining hududiy taqsimlanishi (2023 yil, foizda)

Viloyatning sanoat strategiyasi yuqori texnologiyalarga asoslangan va sanoat klasterlari shaklida tashkil etiladigan tayanch o'sish nuqtalari, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlovchi hududiy sanoat ishlab chiqarishini, hududlarda tashkil etiladigan kichik sanoat zonalari, ularga xizmat qiluvchi kasanachilik va hunarmandchilik asosida tashkil etiladigan sanoat ishlab chiqarish subyektlarini o'z ichiga oladi.

Qashqadaryo viloyati sanoatini rivojlantirishda quyidagi ichki mavjud qiyosiy ustunliklarni keltirib o'tish mumkin:

- viloyatda zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur qayta ishlash mumkin bo'lgan, sifati bilan ajralib turuvchi, meva va sabzavotlar, go'sht va sut mahsulotlari yetishtirishda yirik tabiiy iqtisodiy resurslar mavjudligi;

- Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Nishon tumanlarida mebel ishlab chiqarish bo'yicha tajriba va an'analarning shakllanganligi.

- yengil sanoatni rivojlantirishda hududiy qiyosiy ustunlik va xom-ashyo bazasi (Qamashi, Mirishkor, Chiroqchi, Koson tumanlarida yuqori sifatli ingichka paxta tolasining yetishtirilishi, Kitob, Shahrisabz tumanlarining ipakchilik bo'yicha boy tajribasi, Chiroqchi, Dehqonobod, hamda Yakkabog' tumanlarida jun va teridan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda zarur qimmatli xom-ashyo)

mavjudligi;

Viloyat hududida sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirish maqsadida tumanlarning mineral-xomashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanganlik darajasi, mehnat resurslari hamda asosiy kapitalning miqdori va sifati kabi ustun omillarga qaratish hamda viloyat oziq-ovqat sanoati hamda foydali qazilmalarni ishlab chiqarishida tumanlararo qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari hamda qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohaslarining rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, qayta ishlovchi tarmoqlarining rivojlanishi xizmatlar sohasining taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir etadi (bank, sug'urta, aloqa xizmatlari, savdo va transport). Ayniqsa, xizmat ko'rsatishning bir nechta tarmoqlari qayta ishlovchi sanoatga bevosita bog'liq bo'lib, jumladan, sanoat tovarlarini iste'molchilarga yetkazish orqali mazkur faoliyat turi rag'batlantiriladi. Shuningdek, qayta ishlovchi sanoat ilmiy-tadqiqot, ulgurji va chakana savdo, avtomobillarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohaslarining rivojlanishiga ham yaxshigina ta'sir etadi.

Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- ✓ Muborak tumani sanoatining bir tomonlama xarakterga ega ekanligini hisobga olib, ushbu tumanda sanoatning boshqa tarmoqlari, xususan neft qiman yirik sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta sanoat korxonalarini rivojlantirish, ishlab chiqarishning tugallangan xarakterga ega bo'lishini ta'minlash asosida tumanning ixtisoslashuv darajasini chuqurlashtirish;
- ✓ Qarshi shahrining mavjud iqtisodiy, tabiiy va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda bu yerda sanoatning yuqori texnologiyaga asoslangan, ilmtalab tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda sanoat ishlab chiqarishining diversifikasiyalashuviga erishish;
- ✓ mineral xom ashyo resurslariga boy hududlar — Kitob, Yakkabog', Dehqonobod va G'uzor tumanlarida mavjud xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan sanoat korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;
- ✓ deyarli barcha tumanlarda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini barpo etishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Bunda asosiy e'tibor chorvachilik rivojlangan tumanlar Mirishkor, Kasbi. Chiroqchi, G'uzor, Dehqonobodda ko'nchilik, terini qayta ishlash, jun va jun mahsulotlari ishlab chiqarish, sut va go'sht sanoatini, dehqonchilik rivojlangan

tumanlarda esa paxtani qayta ishlash, to'qimachilik, tikuvchilik, ipakchilik, vinochilik, konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish zarur.

Qashqadaryo viloyatining sanoat rivojlanishining iqtisodiy-geografik jihatlarini o'rganish, ushbu hududning iqtisodiy salohiyatini va uning jahon bozoridagi o'rnini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Viloyatning sanoat tarmoqlari, xususan, kimyo sanoati, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalar, hududning tabiiy resurslar va iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi va o'zaro integratsiyasi viloyatning iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Sanoat tarmoqlarining geografik joylashuvi va ularning hududiy taqsimoti viloyatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, transport infratuzilmasining yaxshilanishi va sanoat klasterlarining shakllanishi viloyatning mintaqaviy integratsiyasini kuchaytirib, uning global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Viloyatning sanoat infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy geografiyaning asosiy muammolaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot, Qashqadaryo viloyatining sanoatini rivojlantirish uchun ilmiy asoslarni yaratish, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatining sanoat rivojlanishining iqtisodiy-geografik jihatlari, hududiy resurslar, sanoat tarmoqlari va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqur o'rganish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Bu esa nafaqat viloyatning, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev, Z. R. (2020). *O'zbekistonning sanoat rivojlanishi va hududiy taqsimoti*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Abduholiqova Gulnovruzkhon. Scientific-theoretical bases of regional location of industrial sectors // International multidisciplinary journal for research & development. India, Volume 10, issue 12 (2023)
3. Abdukhaliqova G.A. The main characteristics of the development of Uzbekistan industry networks // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №2 (117), 2024.

4. Abdiholiqova G.A. Scientific-methodical basis of industrial geography of Uzbekistan // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th December, 2023 ISSN: 2835-3730
5. Qosimov, A. (2021). *Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy tahlili va iqtisodiy integratsiyasi*. Toshkent: Geografiya institutining nashriyoti.
6. G'aniyev, R. T. (2019). *Sanoat tarmoqlari va iqtisodiy o'sish: O'zbekiston misolida*. Toshkent: Iqtisodiyot va Statistika institutining nashriyoti.
7. Murodov, A. (2020). *Sanoat klasterlari va ularning hududiy rivojlanishga ta'siri*. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
8. Statistika qo'mitasi (2023). *O'zbekiston sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari*. Toshkent: Davlat Statistika qo'mitasi nashriyoti.
9. Pavlov, N. (2019). *Geography of Industry: Global Perspectives*. Moscow: Nauka.
10. Sharipov, M. (2021). *Kimyo sanoati va uning iqtisodiy-geografik xususiyatlari*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish agentligi.
11. Barinov, V. (2020). *Regional Economic Integration and Industrial Development in Central Asia*. Moscow: Institute of Economic Geography.
12. Xolmurodov, S. (2019). *Qashqadaryo viloyatining transport infratuzilmasi va sanoat rivojlanishi*. Toshkent: Transport va logistika instituti.
13. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
14. Norman, J. (2021). *Innovation and Technological Advancements in Industrial Geography*. Journal of Industrial Geography, 25(1), 45-60.
15. Sharifov, F. (2022). *O'zbekistonning sanoat salohiyati va eksport salohiyati: Hududiy yondashuv*. Toshkent: O'zbekiston eksportini rivojlantirish markazi.